

“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

34-mavzu: “Mening oilam”

Dars maqsadi: O‘quvchilarda oila – jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini ekanligi, oilaviy qadriyatlar, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va mas’uliyat haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

Annotatsiya: Mazkur mashg‘ulot davomida o‘quvchilar oila tushunchasining ma’naviy-axloqiy, huquqiy va hissiy jihatlarini anglaydilar. Suhbat, guruhli ish, video lavha, o‘yinli topshiriqlar, maqollar va sahna ko‘rinishlari orqali oiladagi har bir a’zoning o‘rni, majburiyati va burchi haqida fikr yuritishadi. “Oila – mehr maskani” g‘oyasi asosida o‘quvchilarda o‘z oilasiga mehr, g‘urur va mas’uliyat hissi kuchayadi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda “oila” tushunchasining mohiyatini anglash ko‘nikmasini shakllantirish;
2. Oilaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirish;
3. Har bir oila a’zosining o‘zaro hurmati, mas’uliyati va mehr-muhabbati haqida fikr yuritish;
4. O‘quvchilarda oilaga sadoqat, ota-ona mehnatini qadrlash va oilaviy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash.

Asosiy g‘oyalar: Oila – inson hayotining poydevori. Har bir bola, har bir inson o‘z oilasida muhabbat, mehr va mas’uliyatni his qilib ulg‘ayadi. Oilada mehr-oqibat, sabr, hurmat va fidoyilik muhitini yaratish – har bir a’zoning vazifasidir.

Kutiladigan natijalar

Aqliy va tushunchaviy darajada:

- O‘quvchilar “oila” tushunchasini keng qamrovda tushunadi;
- Oila jamiyatning asosi ekanligini anglaydi;
- Har bir a’zoning oiladagi o‘rni va burchini biladi.

Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Mehr, g‘amxo‘rlik, hurmat kabi qadriyatlarni qadrlaydi;
- Ota-ona mehnatini e’tirof etadi;
- Oilaga muhabbat va sadoqat hissi kuchayadi.

Amaliy ko‘nikmalarda:

- O‘z oilasi haqida iftixor bilan so‘zlay oladi;
- Oilada muammolarni muloqot orqali hal etish yo‘llarini biladi;
- O‘z oilasida ijobiy muhit yaratishga harakat qiladi.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Oila qadriyatlarini himoya qilish mas’uliyatini his etadi;
- Jamoada o‘zaro hurmat va totuvlikni qadrlaydi.

Metapredmet yondashuv: Bu dars orqali o'quvchilar turli fanlardan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llashadi:

- **Adabiyot:** oila haqidagi she'rlar, maqollarni o'rganish;
- **Tarix:** ajdodlar oilaviy qadriyatlariga nazar;
- **Texnologiya:** oilada mehnat, mas'uliyat;
- **San'at:** oila manzarasini chizish;
- **Axborot texnologiyalari:** oila haqida taqdimot yaratish.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Mashg'ulot shakli: suhbat, guruhli ish, videolavha, o'yinli topshiriq, tahlil.

I. KIRISH. Motivatsion qism. (5 daqiqa)

O‘qituvchi doskaga quyidagi gaplarni yozadi:

“Uydagilar bilishsa – o‘laman.”

“Meni baribir tushunishmaydi.”

“Yaxshisi do‘stimga aytaman.”

“Internetdagi odam meni ko‘proq tushundi.”

So‘ng sinfga qaraydi.

O‘qituvchi: Rostini aytinglar-chi, shu gaplar sizga tanishmi?

Sinfdan kulgilar, bosh iring‘ashlar bo‘ladi.

O‘qituvchi: O‘smir yoshida inson asta-sekin mustaqil fikrlay boshlaydi. O‘ziga yarasha sirlari paydo bo‘ladi. Ba‘zan ota-onasidan nimanidir yashirgisi keladi. Chunki ichida “meni tushunmaydi”, “urishadi”, “telefonni olib qo‘yadi”, “yana nasihat boshlanadi” degan qo‘rquv bo‘ladi. Shunda ayrim yoshlar dardini oilasiga emas, tashqaridagi insonlarga aytishni boshlaydi. Ba‘zan internetdagi notanish odamga, ba‘zan shubhali do‘stga, ba‘zan esa shirin gapirib aldovchi insonlarga ishonib qoladi.

Lekin hayotdagi eng katta xatolarning ko‘pi inson o‘z oilasidan uzoqlashganida boshlanadi. Chunki tashqaridagi odam sizning buguningiz bilan qiziqishi mumkin, lekin ota-onangiz sizning butun hayotingiz haqida qayg‘uradi. Ba‘zan ular qattiq gapiradi, ba‘zan tushunmagandek tuyuladi, lekin siz yiqilsangiz, birinchi bo‘lib qo‘l uzatadigan ham, muammoga duch kelsangiz, oxirigacha yoningizda turadigan ham ko‘pincha oilangiz bo‘ladi.

Tasavvur qiling, hayotingizdagi eng qiyin kunlardan biri. Siz katta xato qilib qo‘ydingiz yoki jiddiy muammoga duch keldingiz. O‘sha paytda sizni kim chin dildan qutqarishga harakat qiladi? Internetdagi notanish odammi yoki oilangizmi?

O‘quvchilar javob beradi.

O‘qituvchi: Ha. Chunki oila insonning eng birinchi himoya qal‘asidir. Bugun biz oila haqida oddiy “uydagi odamlar” sifatida emas, balki inson hayotidagi eng muhim tayanch tizimi sifatida gaplashamiz. Oila nima uchun paydo bo‘lgan? Nega insoniyat ming yillardan beri oilasiz yasholmaydi? Nega kuchli davlatlar ham mustahkam oilaga tayanadi? Nega insonning kelajakdagi baxti ko‘pincha oiladagi munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi?

II. ASOSIY QISM (35 daqiqa)

O‘qituvchi: Hurmatli o‘quvchilar, oila faqat bitta uy yoki bir nechta inson emas, balki jamiyatning eng muhim tayanchidir. Shuning uchun ham bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan davlatimizda oilalarni qo‘llab-quvvatlash, onalar va bolalarni himoya qilish, yoshlar uchun yaxshi sharoit yaratish hamda mahallalarda tinch muhitni mustahkamlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Hozir shu mavzuga oid

videorolikni tomosha qilamiz. Videoda oilani asrash va mustahkamlash uchun qilinayotgan ishlar haqida hikoya qilinadi.

Vizual kontent

Oila – muqaddas qadriyat

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/587

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, mustahkam oila faqat bitta xonadon uchun emas, butun jamiyat uchun muhim ekan. Chunki oilasi tinch bo‘lgan insonning qalbi ham xotirjam bo‘ladi, yaxshi o‘qiydi, mehnat qiladi va kelajakka ishonch bilan qaraydi. Shu sababli oilani asrash faqat ota-onaning emas, har birimizning vazifamiz hisoblanadi.

Sizningcha, inson nima uchun oilaga muhtoj?

O‘quvchilardan turli javoblar olinadi: mehr uchun, yordam uchun, yolg‘iz bo‘lmaslik uchun va hokazo.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, oila bugun paydo bo‘lib qolgan tushuncha emas. Insoniyat tarixida oilaning shakllanishi juda uzoq jarayon hisoblanadi. Eng qadimgi davrlarda, ibtidoiy jamoa tuzumida odamlar to‘da-to‘da bo‘lib yashagan. U paytda hayot juda xavfli edi. Odamlar yirtqichlardan himoyalaniish, ov qilish va tirik qolish uchun birlashishga majbur bo‘lgan.

Keyinchalik matriarxal jamiyat shakllandi. Bu davrda oilada ayollarning o‘rni kuchli bo‘lgan. Chunki ular avlodni davom ettiruvchi, bolalarni himoya qiluvchi va oilani birlashtiruvchi markaz sifatida qaralgan. So‘ng patriarxal jamiyat paydo bo‘ldi. Oilada ota mas‘uliyati, himoya, tartib va boshqaruv tizimi kuchaydi.

Vaqt o‘tishi bilan zamonaviy oila modeli shakllandi. Ayniqsa o‘zbek oilalarida bir necha avlod bir-biriga suyangan holda yashash an‘anasi paydo bo‘ldi. Bizning oilalarda faqat ota-ona emas, bobo-buvi, aka-uka, opa-singil, qarindoshlar ham katta rol o‘ynaydi. Bu tizim insonni yolg‘izlikdan saqlaydi.

Kelinglar, hozir vatanimizning eng mashhur oilalaridan biri – Qodiriylar oilasining sulola zanjiri aks etgan videoni tomosha qilamiz. Bu kabi videoroliklarni sizlar ham o‘z oilangiz misolida suratga olishingiz mumkin. Shunday video olib sizlar ham “avlodlar chellenji”ga qo‘shiling, bobo-yu buvilaringiz bilan tasvirlaringiz esdalik bo‘lib qoladi.

Vizual kontent

Abdulla Qodiriy avlodlari zanjiri

<https://youtu.be/zILlmPIbscM>

O‘qituvchi: Endi bir savol. Nega insoniyat texnologiya rivojlangan davrda ham oiladan voz kecha olmayapti?

O'quvchilarning fikrlari tinglanadi.

O'qituvchi: Fikrlaringizda jon bor. Inson faqat biologik mavjudot emas. Unga mehr, ishonch, himoya va ruhiy tayanch kerak. Inson yolg'iz yashashi mumkin, lekin uzoq vaqt davomida mehirsiz yasholmaydi.

Biz yuqorida Abdulla Qodiriy bobomizni tilga oldik. Abdulla Qodiriy o'z asarlarida oilaviy qadriyatlarimizni yuksaklarga ko'targan yozuvchi. Bu yil uning "O'tkan kunlar" romani yozilganiga 100 yil to'ldi. Shu munosabat bilan Marg'ilonda "O'tkan kunlar"ning bosh qahramonlaridan biri Kumushbibi yashagan ramziy uyning ochilish marosimi bo'ldi. Kelinglar, hozir Marg'ilondagi o'sha uyga sizlarni taklif qilaman. Uyni sizlarga Kumushbibining o'zi ko'rsatadi.

Vizual kontent

Marg'ilondagi Mirzakarim qutidor hovlisidamiz

https://youtu.be/u-7Oq8qZn_8

O'qituvchi: Oila insonning psixologik xavfsizlik hududi hisoblanadi. Hayotda muammo bo'lsa, inson eng avvalo qaytadigan joy aynan oilasidir. Tasavvur qiling, siz katta muvaffaqiyatga erishdingiz. Mukofot oldingiz. Kimning quvonchi samimiyroq bo'ladi? Yoki aksincha, yiqilib tushdingiz, xato qildingiz. Kim sizni eng oxirigacha tashlab ketmaydi?

O'quvchilar javob beradi.

O'qituvchi: Shunday, oilangiz. Ba'zan yoshlar ota-onasining o'ziga nisbatan munosabatini noto'g'ri tushunadi. Kimningdir otasi ko'p gapirmaydi, lekin oilasi uchun tinmay ishlaydi. Kimningdir onasi qattiqqo'lroq, lekin farzandi kasal bo'lsa, kechasi bilan uxlamaydi. Ayrim insonlar mehrini quchoqlab erkalashlar orqali emas, mas'uliyati bilan ko'rsatadi.

Doim shuni eslab qolinglar: ota-onaning talabchanligi ortida ham ko'pincha siz uchun qo'rquv va javobgarlik yotadi. Chunki ular sizning kelajagingiz uchun mas'ul ekanini his qiladi.

Oilada har bir inson bir-biri bilan nafaqat qon orqali, balki majburiyat va tuyg'ular orqali bog'langan bo'ladi. Ota va ona oilaning boshqaruvchilari hisoblanadi. Ular oila degan katta loyihani yuritadi. Farzandlarning xavfsizligi, ta'limi, sog'ligi, kelajagi uchun har kuni qaror qiladi. Farzandlar esa bu loyihaning eng muhim qismi hisoblanadi.

Shuning uchun ham sog'lom oilada har bir a'zo bir-birining muvaffaqiyati uchun harakat qiladi. Otaning mehnati farzand uchun xizmat qiladi. Onaning mehri oilani birlashtiradi. Farzandlarning yutug'i esa ota-onaning eng katta mukofotiga aylanadi.

Kelinglar, shu o'rinda birgalikda, bir-birini qo'llab hamkorlik qilgan mashhur juftliklar haqiga ma'lumot beruvchi videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Tarixda iz qoldirgan juftliklar

<https://youtu.be/qJHdukhHwbw>

O‘qituvchi: Sizningcha, yolg‘iz yashagan odam kuchliroqmi yoki uni qo‘llab-quvvatlaydigan oilasi bor odammi?

O‘quvchilar javob beradi.

O‘qituvchi: Albatta, mustahkam jamoasi bor odam kuchliroq bo‘ladi. Oila aslida bir umr davom etadigan eng muhim jamoa hisoblanadi.

Interaktiv mashq: “Vaziyatga boshqa tomondan qarang”

O‘qituvchi sinfni guruhlariga bo‘ladi.

Har bir guruhga vaziyat beriladi.

1-vaziyat: O‘smir qiz internetdagi notanish inson bilan gaplashmoqda. Onasi bundan xavotir olib telefonini tekshirmoqchi.

2-vaziyat: Yigit do‘stlari bilan ko‘chada yurib, uyga kech qaytmoqda. Otasi ketma-ket qo‘ng‘iroq qilmoqda. Yigit esa “menga ishonmaydi” deb jahli chiqmoqda.

3-vaziyat: Farzand oliygoh tanlovida ota-onasi bilan tortishib qoldi. U san’atni xohlaydi, ota-onasi esa boshqa yo‘nalishni maslahat bermoqda.

Topshiriq: Har bir guruh vaziyatni ikki tomondan tahlil qiladi. Avval farzand nuqtayi nazaridan, keyin ota-ona nuqtayi nazari tushuntiriladi.

Guruhlar chiqib javob beradi.

O‘qituvchi (xulosa qiladi): Ko‘rdingizmi, muammo ko‘pincha yomonlikdan emas, bir-birini tushunmaslikdan kelib chiqadi. Oila ichidagi eng katta ko‘prik – bu suhbat. Gaplashilmagan joyda shubha paydo bo‘ladi. Shuning uchun oila ichida bir-birini eshitish juda muhim.

O‘qituvchi mavzuni kelajakka bog‘laydi.

Hozir sizlar hayotning eng muhim bosqichidasizlar. Oldinda kasb tanlash, mustaqil qarorlar, katta hayot turibdi. Bir kun kelib, siz ham oila qurasiz. Ana o‘sha paytda bugungi mavzu siz uchun yanada muhim bo‘ladi.

Inson kelajakda qanday uy qurishni emas, qanday muhit yaratishni ham o‘ylashi kerak. Uy katta bo‘lishi mumkin, lekin ichida mehr bo‘lmasa u oddiy bino bo‘lib qoladi. Oddiyroq uy bo‘lsa ham, ichida hurmat va ishonch bo‘lsa, u haqiqiy oilaga aylanadi.

Baxtli oila tasodifan paydo bo‘lmaydi. Uni har kuni qurish kerak bo‘ladi. Bir-birini tinglash bilan, vaqt ajratish bilan, mas’uliyat bilan, sabr bilan.

Keling, hozir shunday baxtli oilalardan biri haqidagi videolavhani tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Ikki buyuk sulola tutashgan oila

<https://youtu.be/Fk-Pp2PpAOs>

O'qituvchi: Videodan guvohi bo'lganingizdek, oilada bir-bini tushunishga urinish juda muhim. Oila muqaddas, uni qadrlash va asrash kerak.

Ayrim insonlar ishda juda muvaffaqiyatli bo'ladi, lekin oilasiga vaqt ajratmaydi. Natijada ichki yolg'izlik paydo bo'ladi. Boshqa inson esa oilasiga ham e'tibor beradi. Uning yonida doim qo'llovchi jamoasi bo'ladi. Shu sababli hayotdagi haqiqiy muvaffaqiyat faqat pul yoki lavozim bilan emas, insonning oilaviy baxti bilan ham o'lchanadi.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O'qituvchi: Bugun biz oilaga oddiy tushuncha sifatida emas, insonning hayotiy tayanchi sifatida qaradik. Oila insoniyat tarixida ming yillar davomida shakllangan eng muhim tizimlardan biri ekanini ko'rdik. Chunki inson yolg'iz yashash uchun yaratilmagan.

Hayotda hamma narsa o'zgaradi. Do'stlar almashadi, joylar o'zgaradi, imkoniyatlar kelib-ketadi. Lekin insonning qalbida oilaning o'rni doim alohida bo'lib qoladi.

Shuning uchun oilani qadrlash kerak. Ota-onaning mehnatini tushunishga harakat qilish kerak. Ba'zan ularning gaplari yoqmasligi mumkin, lekin vaqt o'tib ko'p nasihatlarining ortida tajriba va mehr turganini tushunasiz.

Mustahkam oila bo'lishi uchun siz bugundan nima qila olasiz?

O'quvchilar javob beradi.

Ota-onamni ko'proq eshitaman.

Uy ishlarida yordam beraman.

Ukam yoki singlim bilan ahil bo'laman.

Muammolarimni oilamdan yashirmayman.

O'qituvchi: Esda tutinglar, insonning eng katta kuchi uni qo'llab-quvvatlaydigan insonlari borligidadir. Oilangizni qadrlang. Chunki bir kun kelib siz ham kimningdir suyanchig'i, himoyasi va eng yaqin odami bo'lasiz. Albatta, bugun oilada ko'rgan mehringizni ertaga o'z oilangizga olib kirasiz. Demak, bugungi oilaga munosabatingiz ertangi baxtli hayotingizni belgilaydi.

Shu bilan darsimiz nihoyasiga yetdi. Xayr, salomat bo'linglar.